ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 33
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

O‘TMISHDAN SABOQ: TARIXIY SHAXSLARNING KUTILMAGAN QARORLARI

Ahrorova Nigina Anvarovna
Buxoro davlat pedagogika instituti o’qituvchisi
ahrorovanigina@buxdpi.uz
Farhodova Dilnura Fazliddinovna
Buxoro davlat pedagogika institute talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarixiy qarorlarning insoniyat taqdiriga ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Tarix sahnasida muhim rol o'ynagan qarorlar ba'zan jamiyatlar uchun taraqqiyot va umid manbai bo'lgan bo'lsa, ba'zida esa fojialar va tanazzullarga olib kelgan. Siyosiy yetakchilar, harbiy sarkardalar va olimlarning qarorlari nafaqat o'z davrini, balki kelajak avlodlarning hayot tarzini ham o'zgartirgan. Maqolada siyosat, urushlar, ilmiy kashfiyotlar va texnologiya taraqqiyotidagi inqilobiy qarorlar o'rganilib, ularning madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarga ta'siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tarixdagi strategik qarorlarning sabablari, oqibatlari va ulardan chiqarilgan saboqlar yoritiladi. Ushbu tahlillar orqali insoniyatning o'z qarorlari orqali taqdirini qanday shakllantirgani ko'rsatib beriladi.*

Аннотация. *В данной статье проводится глубокий анализ влияния исторических решений на судьбу человечества. Решения, сыгравшие ключевую роль на арене истории, иногда становились источником прогресса и надежды для обществ, а иногда приводили к трагедиям и упадку. Решения политических лидеров, военачальников и ученых не только изменили их эпоху, но и повлияли на образ жизни будущих поколений. В статье исследуются революционные решения в политике, войнах, научных открытиях и технологическом прогрессе, а также их влияние на культурные и социальные изменения. Также рассматриваются причины, последствия и уроки, извлеченные из стратегических решений в истории. Благодаря этим анализам показывается, как человечество формировало свою судьбу через собственные решения.*

Annotation. *This article provides an in-depth analysis of the impact of historical decisions on the fate of humanity. Decisions that played a crucial role on the stage of history have sometimes been a source of progress and hope for societies, while at other times they have led to tragedies and decline. The decisions made by political leaders, military commanders, and scientists not only shaped their own eras but also influenced the lifestyles of future generations. The article examines revolutionary decisions in politics, wars, scientific discoveries, and technological advancements, analyzing their*

effects on cultural and social changes. Additionally, it explores the causes, consequences, and lessons learned from strategic decisions in history. Through these analyses, the article demonstrates how humanity has shaped its own destiny through its decisions.

Kalit so‘zlar: *tarix, qarorlar, tarixiy shaxslar, oqibatlar, saboq, strategiya, insoniyat, urush, siyosat, jamiyat, ilmiy kashfiyotlar, fan va texnologiya taraqqiyoti, inqilobiy qarorlar, madaniy va ijtimoiy o’zgarishlar.*

Ключевые слова: *история, решения, исторические личности, последствия, урок, стратегия, человечество, война, политика, общество, научные открытия, развитие науки и технологий, революционные решения, культурные и социальные изменения.*

Keywords: *history, decisions, historical figures, consequences, lesson, strategy, humanity, war, politics, society, scientific discoveries, science and technology development, revolutionary decisions, cultural and social changes.*

Tarix sahnasida shunday shaxslar bo‘lganki, ularning bitta qarori nafaqat o‘z davrini, balki kelajak avlodlar taqdirini ham belgilab bergan. Ba’zan bu qarorlar umid va taraqqiyot olib kelgan bo‘lsa, ba’zida esa xalqlar fojiasiga sabab bo‘lgan. Lekin bu tanlovlarning barchasi insoniyat tarixida o‘z izini qoldirgan. Ushbu maqolada biz tarixiy shaxslarning kutilmagan qarorlarini tahlil qilib, ularning ortidagi sabablar va nati jalarga nazar tashlaymiz.

Siyosat tarix davomida xalqlarning taqdirini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib kelgan. Ba’zan bitta insonning qarori butun davlat tizimini o‘zgartirib yuborgan. Siyosiy yetakchilarning qarorlari qisqa muddatli natijalarga olib kelishi mumkin bo‘lsa-da, ularning uzoq muddatli ta’siri yanada chuqurroq bo‘ladi.

Amerika tarixida burilish yasagan shaxs – Abraham Linkoln. U 1863-yilda Emansipatsiya deklaratsiyasini imzolaganida, bu nafaqat bir siyosiy harakat edi, balki butun jamiyatni o‘zgartirgan jasoratli qadam bo‘ldi. Chunki qullik Amerikada iqtisodiy va ijtimoiy tizimning bir qismi edi. Linkolnning qarori dastlab qarshilikka uchragan bo‘lsa-da, oxir-oqibat yangi Amerika jamiyatining poydevorini yaratdi va tenglik tamoyillarini mustahkamladi. Uning qat’iyatliligi va adolatga bo‘lgan ishonchi butun dunyoga inson huquqlarining muqaddasligini eslatib qo‘ydi.

Har qanday buyuk sarkardaning hayotida o‘zgarish nuqtalari bo‘ladi. Napoleon uchun bu – 1812-yilgi Rossiyaga yurish edi. U o‘zining ilgari ko‘plab davlatlarni egallashdagi muvaffaqiyatlariga suyanib, Rossiyani ham tezda taslim qilishiga ishonardi. Ammo ruslar "yoqilgan yer" taktikasi va qattiq qish sharoiti bilan Napoleon

armiyasini yo‘qotish yoqasiga keltirdi. Ushbu yurish uning kuch-qudratining pasayish nuqtasiga aylandi va Fransiya imperiyasining yemirilishiga turtki berdi.

Bundan tashqari, mustamlakachilik siyosati butun dunyoda uzoq davom etgan jarayon bo‘lib, Hindiston ham ushbu bosqichni boshidan kechirgan. Ammo bu mamlakatning ozodlikka erishish yo‘li zo‘ravonliksiz qarshilik orqali amalga oshdi. Gandi Hindiston mustaqilligi uchun kurashni zo‘ravonliksiz olib borgan yetakchi edi. Uning harakatlari butun dunyoga tinch yo‘l bilan siyosiy o‘zgarishlarga erishish mumkinligini isbotladi. Britaniya mustamlakachiligiga qarshi harakat qilib, u butun dunyoga saboq bo‘ldi.[1]

Fan va texnologiya taraqqiyoti insoniyat tarixida doimo muhim rol o‘ynab, jamiyatni yangi bosqichlarga olib chiqqan. Insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi ilm-fan va texnologiyadagi yutuqlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Har bir davrda amalga oshirilgan ilmiy kashfiyotlar va texnologik ixtirolar nafaqat jamiyat hayotini yengillashtirgan, balki inson tafakkurini kengaytirib, yangi imkoniyatlar yaratgan.

Masalan, sanoat inqilobi ishlab chiqarish jarayonlarini tubdan o‘zgartirib, jamiyat tuzilishini qayta shakllantirdi. Bu davrda ixtiro qilingan bug‘ dvigateli transport vositalarida qo‘llanilib, insonning harakatlanish tezligi va imkoniyatlarini kengaytirdi. Natijada, xalqaro savdo rivojlandi, shaharlar o‘sdi va yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ldi. Keyinchalik, elektr energiyasining kashf etilishi va undan foydalanish imkoniyati nafaqat sanoatni, balki kundalik turmush tarzini ham tubdan o‘zgartirdi. Elektr yoritgichlari, maishiy texnikalar va aloqa vositalari hayotni yengillashtirib, samaradorlikni oshirdi. Shu bilan birga, elektr energiyasidan foydalanish ilm-fanning boshqa sohalarida ham yangi kashfiyotlarni yuzaga keltirdi.

O‘tmishda qabul qilingan qarorlar bugungi texnologik yutuqlarning poydevorini yaratdi. Qadimgi yunon olimlari tomonidan ishlab chiqilgan matematik nazariyalar, geometriya va astronomiya haqidagi bilimlar hozirgi ilm-fanning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Masalan, Evklidning geometriyaga oid asarlari zamonaviy matematika va fizika uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Arximedning mexanika va gidrostatikaga doir tadqiqotlari esa muhandislik fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Shu bilan birga, o‘rta asrlarda ilm-fan rivoji cheklangan bo‘lsa-da, Sharq olimlari, xususan, Al-Xorazmiy, Ibn Sino va Al-Beruniy kabi buyuk allomalar matematika, tibbiyot va astronomiya sohalarida inqilobiy yangiliklar yaratdilar.

Uyg‘onish davri esa ilmiy tafakkurning qayta tiklanish davri bo‘lib, unda Leonardo da Vinchi, Nikolay Kopernik, Galileo Galiley va Isaak Nyuton singari

[1] "Hindistonning kashf etilishi" – Javoharlal Neru

olimlar ilm-fan va san’atni birlashtirib, yangi ilmiy paradigmalarning yaratilishiga asos soldi. Ular tomonidan qabul qilingan dadil qarorlar va yangiliklarga bo‘lgan intilish zamonaviy texnologiyalarning yuzaga kelishiga turtki berdi. Masalan, Kopernikning geosentrik nazariyadan voz kechib, geliosentrik dunyoqarashni ilgari surishi astronomiyada inqilobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Galileo Galiley esa tajriba va kuzatishlarga asoslangan ilmiy usulni rivojlantirib, zamonaviy ilm-fanning asosini yaratdi.[2]

Ba’zi olimlar o‘z kashfiyotlari tufayli zamondoshlari tomonidan keskin tanqidga uchragan bo‘lsa-da, ular o‘z qarashlari va ilmiy tadqiqotlariga sodiq qolgan holda kelajak avlodlar uchun yo‘l ochdilar. Masalan, Galileo Galileyning Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi nazariyasi cherkov tomonidan qoralangan va uning uy qamog‘iga hukm qilinishiga sabab bo‘lgan. Ammo bu kashfiyot keyinchalik astronomiya va fizika sohasida inqilobiy o‘zgarishlarga olib keldi. Shuningdek, Charlz Darvinning evolyutsiya nazariyasi ham katta bahs-munozaralarga sabab bo‘lganiga qaramay, hozirgi biologiya fanining tamal toshi hisoblanadi.[3]

Boshqa tomondan, o‘z ishiga bo‘lgan fidoyiligi va ilm-fanga sadoqati sababli tarixda nom qoldirgan olimlar ham mavjud. Masalan, Nikola Tesla elektr energiyasidan samarali foydalanish va uni uzoq masofalarga uzatish bo‘yicha inqilobiy g‘oyalarni ilgari surib, o‘z davridan ancha ilgarilab ketgan edi. Uning fidoyiligi va g‘ayrat-shijoati tufayli bugungi zamonaviy elektr tarmoqlari paydo bo‘ldi. Tomas Edison esa amaliy ixtirolari bilan elektr energiyasini ommaviy iste’mol uchun qulay shaklga keltirdi. Shuningdek, Mariya Kyuri radioaktivlik sohasidagi tadqiqotlari bilan ilm-fan rivojiga, tibbiyotdagi davolash usullariga katta hissa qo‘shdi.

Bugungi kunda sun’iy intellekt, kvant kompyuterlar va biotexnologiyalar sohasidagi yutuqlar ham o‘tmishda qabul qilingan qarorlar va kashfiyotlar asosida shakllangan. Alan Turingning algoritmlar va kompyuterlar haqida nazariy tadqiqotlari zamonaviy kompyuter texnologiyalarining asosi bo‘ldi. Shu bilan birga, Jon fon Neymanning kompyuter arxitekturasi haqidagi g‘oyalari bugungi kundagi elektron hisoblash mashinalarining asosini tashkil etadi. Shuning uchun fan va texnologiya taraqqiyoti nafaqat ilmiy kashfiyotlar va ixtirolar bilan, balki o‘sha kashfiyotlarni amalga oshirgan shaxslarning jasorati, qat’iyati va fidoyiligi bilan ham bog‘liqdir. Bu jarayonda o‘tmishdagi qarorlar bugungi yutuqlarning asosi bo‘lganidek, bugungi yangiliklar ham kelajak avlodlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Fan va

[2] To'xtayev A. "Sharq va G'arb falsafasi tarixi". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – 76-bet.
[3] Charles Darwin. On the Origin of Species. London: John Murray, 1859. – Detailed explanation of the theory of evolution, in Chapter 1 .

texnologiya taraqqiyoti insoniyatning cheksiz imkoniyatlarini o‘rganish va rivojlantirishda davom etmoqda.

Tarixdagi ko‘plab harbiy yurishlar va strategik qarorlar imperiyalarning rivojlanishi yoki tanazzuliga bevosita sabab bo‘lgan. Har qanday urushda muvaffaqiyat qozonish uchun strategiya va sharoitlarni to‘g‘ri baholash juda muhim, aks holda noto‘g‘ri qarorlar va rejalashtirish katta yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Ko‘plab sarkardalar va qo‘mondonlar o‘z davrining harbiy sharoitlarini chuqur tahlil qilgan holda muvaffaqiyatga erishgan bo‘lsa, ba’zilarining nojo‘ya qarorlari o‘zlari boshqarayotgan davlatlarning yemirilishiga sabab bo‘lgan.

Misol uchun, Makedoniyalik Iskandar Sharqqa uyushtirgan yurishlarida o‘zining nozik strategik rejalari, jang maydonidagi tezkor qarorlari va raqib kuchlarini bo‘lib tashlash usuli bilan tarixda eng muvaffaqiyatli sarkarda sifatida tanilgan. Uning strategiyasi dushmanlarni kutilmagan hujumlar va atrofni o‘rab olish taktikasi bilan mag‘lub etgan. Shu orqali Iskandar Misrdan Hind daryosigacha bo‘lgan ulkan hududlarni egallab, dunyodagi eng katta imperiyalardan birini yaratdi. Ammo uning to‘xtovsiz harbiy yurishlari va uzoq hududlarda uzoq vaqt davomida turishi askarlarining charchashi va noroziligiga sabab bo‘ldi. Natijada, Iskandarning o‘limidan so‘ng uning imperiyasi qisqa muddat ichida parchalanib ketdi.

Shunga o‘xshash holat Rim imperiyasining tanazzulida ham kuzatiladi. Rim o‘zining kuchli harbiy kuchi va puxta strategik rejalari bilan O‘rta Yer dengizi atrofidagi hududlarni o‘ziga bo‘ysundirdi. Biroq, imperiyaning kengayishi bilan birga uning ichki siyosiy nizolari kuchaydi va chegaralarini himoya qilish qiyinlashdi. Rim generallari orasidagi o‘zaro raqobat va hokimiyat uchun kurashlar imperiyani ich-ichidan yemira boshladi. Bundan tashqari, Var xalqasida German qabilalaridan qattiq mag‘lubiyatga uchragan Rim qo‘shinlari imperiyaning shimoliy chegaralarini himoya qila olmadi. Bu mag‘lubiyat Rimning harbiy qudratiga katta putur etkazdi va keyinchalik german qabilalari tomonidan bosib olinishi uchun zamin yaratdi.

Boshqa tomondan, Chingizxon o‘zining harbiy yurishlarida yangicha strategik qarorlar va taktikalarni qo‘llab, mo‘g‘ul qo‘shinlarini dunyodagi eng qudratli harbiy kuchga aylantirdi. U jang maydonida tezkor harakat qilish, qo‘shinlarni bo‘lib tashlab, raqibning orqa tomoniga hujum qilish va razvedka ma’lumotlaridan samarali foydalanish orqali katta g‘alabalarga erishdi. Chingizxonning harbiy yurishlari Osiyodan Sharqiy Yevropagacha bo‘lgan ulkan hududlarni bosib olishga imkon berdi. Ammo uning avlodlari orasidagi taxt uchun kurashlar va boshqaruvdagi kelishmovchiliklar Mo‘g‘ul imperiyasining bo‘linishiga olib keldi.

Strategik qarorlarning oqibatlarini o‘rganishda Napoleon Bonapartning harbiy yurishlari ham diqqatga sazovor. U o‘z davrining eng iste’dodli sarkardalaridan biri

bo‘lib, ko‘plab janglarda g‘alaba qozongan va Fransiya imperiyasini kengaytirgan. Uning taktikasi dushman qo‘shinlarini chalg‘itish va ularni alohida bo‘limlarga ajratib, har birini alohida mag‘lub etishdan iborat edi. Ammo Napoleonning Rossiyaga uyushtirgan harbiy yurishi uning eng katta xatosi bo‘ldi. Qattiq qish, uzoq ta’minot yo‘llari va rus qo‘shinlarining “kuydirilgan yer” taktikasini qo‘llashi fransuz qo‘shinlarini halokatga olib keldi. Natijada, Napoleon o‘zining kuchli armiyasidan ayrildi va uning imperiyasi yemirildi.[4]

Shuningdek, Ikkinchi jahon urushidagi strategik qarorlar ham dunyo xaritasini qayta chizib, davlatlar o‘rtasidagi kuchlar muvozanatini o‘zgartirdi. Adolf Gitlerning Sovet Ittifoqiga qarshi “Barbarossa” operatsiyasini boshlashi va shiddatli qish sharoitlarini inobatga olmasligi nemis qo‘shinlarining katta yo‘qotishlariga sabab bo‘ldi.

Shunday qilib, tarixdagi harbiy yurishlar va strategik qarorlar nafaqat jang maydonidagi natijalarni, balki butun imperiyalar va davlatlarning taqdirini hal qilgan. Muvaffaqiyatli sarkardalar jang maydonidagi vaziyatni chuqur tahlil qilib, sharoitlarga mos strategiyalar ishlab chiqishga qodir bo‘lganlar. Aksincha, noto‘g‘ri qarorlar va noto‘g‘ri baholangan sharoitlar katta yo‘qotishlarga, hatto butun boshli davlatlarning qulashiga olib kelgan.

Xulosa

Tarix davomida qabul qilingan qarorlar butun jamiyatlar va davlatlarning taqdirini belgilab bergan. Siyosiy qarorlar jamiyatda chuqur o‘zgarishlarga olib kelgan, noto‘g‘ri baholangan harbiy qarorlar esa imperiyalarning tanazzuliga sabab bo‘lgan. Ilm-fan sohasidagi kashfiyotlar dastlab qarshilikka uchragan bo‘lsa-da, keyinchalik insoniyat tafakkurini tubdan o‘zgartirgan. Shunday qilib, tarixiy qarorlar va ularning oqibatlarini o‘rganish bugungi kunda to‘g‘ri xulosa chiqarish va kelajak uchun saboq olishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergasheva, Yu.A. (2021). O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Qarshi: "Intellekt" nashriyoti.
2. Sagdullayev, A.S. (2021). O'zbekiston tarixi, I kitob. Toshkent: "Donishmand ziyosi".
3. Ostonov, O. (2022). O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Toshkent: "Lesson Press" nashriyoti.

[4] Dominic Lieven. Russia Against Napoleon: The True Story of the Campaigns of War and Peace. – This work explores Russia's resistance to Napoleon's invasion. Pages 210–220

4. Ilhomov, Z.A. (2021). Markaziy Osiyo tarixining dolzarb muammolari. Toshkent: TDPU.
5. Pardayev, T.R. (2019). "O‘zbekistonning janubiy hududlarida uy-joy qurilishidagi ahvol: o‘zgarishlar va muammolar (1950-1960 yy)". Ilmiy Axborotnoma, SamDU.
6. Ahrorova N," The collected myths of a group of people" https://scholar.google.com/scholar?cluster=10350961352370301658&hl=en&as_sdt=0,5&scioq=ahrorova+nigina#:~:text=Integration%20Conference%20on%20Integration%20of%C2%A0%E2%80%A6%2C%202022%20%2D%20conferenceseries.
7..Z.I, R. ., & Nigina, A. . (2023). MYTHS AS DEPICTIONS OF HISTORICAL EVENTS. Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 206–208. Retrieved from https://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/1047
8. Rajabov D.Z., & Ahrorova N. A. (2023). THE CONNECTIONS AND DIFFERENCES BETWEEN MYTHOLOGY AND FOLKLORE. Open Access Repository, 9(4), 282–285. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/JTF96
9. "O‘zbekiston tarixi darsligi" (2021). Vikikitob. https://uz.wikibooks.org/wiki/O%60zbekiston_tarixi_darsligi
10. "O‘zbekistonning eng yangi tarixi" (2022). Renessans ta'lim universiteti. https://renessans-edu.uz/files/books/2024-11-30-10-16-19_38a44056ef08f41ae45e22ad8d382645.pdf
11. Ahrorova Nigina Anvarovna RESEARCH TOPICS ON THE COMPARISON OF ENGLISH AND UZBEK
MYTHOLOGEMES
https://doi.org/10.5281/zenodo.15233007